



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 07 | pp. 81-96 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA AKTIVLAR VA MAJBURIYATLAR MUDDATLARI NOMUVOFIQLIGINI FOIZ RISKI NUQTAI NAZARIDAN BAHOLASH



Xakkulov Akbar Uralovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston bank tizimida aktivlar va majburiyatlar muddatlari nomuvofiqligi foiz riski nuqtai nazaridan baholangan. Tadqiqot 2020-2025 yillarga oid yillik ko'rsatkichlar va 72 ta oylik kuzatuv asosida amalga oshirilgan. Tahlilda dinamik, tarkibiy va taqqoslama tahlil, koeffitsientlar va korrelyatsiya usullari hamda kredit-depozit foiz spreadini baholashdan foydalanilgan. Maqolada tarkibiy nomuvofiqlik indeksi va muddat-valyuta foiz spreadi matritsasini birgalikda qo'llashga asoslangan baholash usuli taklif etilgan. Tadqiqot natijalari asosida uzoq muddatli kreditlarni barqaror resurslar bilan qoplash, valyuta kesimida GAP limitlarini belgilash hamda TNI, NII, EVE, LCR va NSFR ko'rsatkichlarini kompleks nazorat qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: aktivlar va majburiyatlarni boshqarish, muddat nomuvofiqligi, foiz riski, tarkibiy nomuvofiqlik indeksi, muddat transformatsiyasi, kredit-depozit nisbati, kredit-depozit foiz spreadi, qayta narxlash tafovuti, sof foiz marjasi.

Abstract. The article assesses the maturity mismatch between assets and liabilities in the banking system of Uzbekistan from an interest rate risk perspective. The study is based on annual indicators for 2020–2025 and 72 monthly observations. The analysis employs dynamic, structural and comparative methods, ratio and correlation analysis, as well as the assessment of loan-deposit interest rate spreads. The article proposes an assessment method based on the joint application of the Structural Mismatch Index and a maturity-currency interest spread matrix. Based on the research findings, practical recommendations are developed for funding long-term loans with stable resources, establishing currency-specific GAP limits, and ensuring the integrated monitoring of TNI, NII, EVE, LCR and NSFR indicators.

Keywords: asset and liability management, maturity mismatch, interest rate risk, Structural Mismatch Index, maturity transformation, loan-to-deposit ratio, loan-deposit interest rate spread, repricing gap, net interest margin.

Аннотация. В статье проведена оценка несоответствия сроков активов и обязательств банковской системы Узбекистана с позиции процентного риска. Исследование основано на годовых показателях за 2020–2025 годы и 72 ежемесячных наблюдениях. В процессе анализа применены методы динамического, структурного и сравнительного анализа, коэффициентный и корреляционный методы, а также метод оценки процентного спреда между кредитными и депозитными ставками. Предложен метод оценки, основанный на совместном применении индекса структурного

несоответствия и матрицы процентных спредов в разрезе сроков и валют. По результатам исследования разработаны практические рекомендации по обеспечению долгосрочных кредитов стабильными ресурсами, установлению GAP-лимитов в разрезе валют и комплексному мониторингу показателей TNI, NII, EVE, LCR и NSFR.

Ключевые слова: управление активами и обязательствами, несоответствие сроков, процентный риск, индекс структурного несоответствия, трансформация сроков, соотношение кредитов и депозитов, кредитно-депозитный процентный спред, разрыв переоценки, чистая процентная маржа.

Kirish

Bank faoliyatining barqarorligi aktivlar va majburiyatlarning hajmi bilangina emas, balki ularning muddati, valyutasi, foiz stavkasi turi va qayta narxlanish davri o'zaro muvofiqligi bilan ham belgilanadi. Tijorat banklari qisqa va o'rta muddatli resurslarni jalb qilib, ularni uzoq muddatli kreditlar va boshqa daromad keltiruvchi aktivlarga joylashtiradi. Ushbu muddat transformatsiyasi bank vositachiligining asosiy vazifalarid an biri hisoblanadi. Biroq aktivlar va majburiyatlar muddatlari o'rtasidagi farq me'yordan ortishi bankning likvidligi, sof foizli daromadi va kapitali iqtisodiy qiymatining foiz stavkalari o'zgarishiga ta'sirchanligini kuchaytiradi.

Foiz riski bozor stavkalari o'zgarishi natijasida bankning moliyaviy natijalari yoki kapitali iqtisodiy qiymati pasayishi ehtimolini ifodalaydi. Ushbu riskning asosiy manbalaridan biri aktivlar va majburiyatlarning qayta narxlanish muddatlari bir-biriga mos kelmasligidir. Masalan, bank uzoq muddatli kreditni qat'iy foiz stavkasida ajratib, uni qisqa muddatli depozitlar hisobidan moliyalashtirgan bo'lsa, bozor stavkalari oshgan davrda depozitlar qiymati tez ko'tariladi. Kredit bo'yicha foiz daromadi esa shartnoma muddati davomida o'zgarmasligi mumkin. Natijada bankning kredit va depozit stavkalari o'rtasidagi foiz spreadi qisqaradi hamda sof foiz marjasiga bosim yuzaga keladi.

Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi bank portfelidagi foiz riskini boshqarishda foiz stavkalari o'zgarishining bank daromadlari va kapitali iqtisodiy qiymatiga ta'sirini birgalikda baholashni belgilagan. Mazkur yondashuv sof foizli daromad o'zgarishi va kapital iqtisodiy qiymati o'zgarishini turli foiz shoklari asosida o'lchashni nazarda tutadi. Shuningdek, banklar aktivlar, majburiyatlar va balansdan tashqari pozitsiyalarning shartnomaviy hamda xulq-atvor muddatlarini hisobga olishi kerak. Bazel qo'mitasi 2024 yilda foiz shoklarini hisoblash uslubiyotini qayta kalibrladi va har bir valyutaga xos foiz stavkalari o'zgarishini inobatga olish talabini kuchaytirdi [1,2].

O'zbekiston bank tizimida ham aktivlar va majburiyatlarning muddat tarkibini foiz riski nuqtai nazaridan baholash zarurati ortib bormoqda. Bank kredit portfelida uzoq muddatli kreditlarning yuqori ulushi, depozit resurslarining turli muddatlarda jalb qilinishi, milliy va xorijiy valyutadagi stavkalar o'rtasidagi farq hamda Markaziy bank asosiy stavkasining o'zgarishi banklarning sof foizli daromadiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayni vaqtda kredit va depozit stavkalari asosiy stavka o'zgarishiga bir xil tezlikda moslashmasligi mumkin.

O'zbekiston tijorat banklarida 2026 yil 1 yanvar holatiga kredit portfeli 604,0 trln so'mni, depozitlar qoldig'i esa 417,3 trln so'mni tashkil etgan. Natijada kreditlarning depozitlarga nisbati qariyb 145 foiz darajasida shakllangan. Kredit portfelining 531,8 trln so'mi yoki 88 foizi uzoq muddatli kreditlar hissasiga to'g'ri kelgan. Shuningdek, muddatli

depozitlar 233,0 trln so'mni, qaytarish muddati bir yildan yuqori bo'lgan depozitlar esa 156,7 trln so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichlar uzoq muddatli kredit qo'yilmalari va depozit resurslarining muddat tarkibi o'rtasida sezilarli farq mavjudligini ko'rsatadi. Biroq bu farqni to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish taqchilligi sifatida baholash mumkin emas. Chunki banklar depozitlardan tashqari kapital, banklararo resurslar, xorijiy kredit liniyalari va boshqa moliyalashtirish manbalaridan ham foydalanadi [3].

Markaziy bankning 2025 yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhida aktivlar va majburiyatlarning muddatlari o'rtasidagi nomutanosiblik darajasi yaxshilangani qayd etilgan. 2025 yil IV choragida milliy valyutadagi aktivlarning 47 foizi bir yilgacha bo'lgan muddatga ega bo'lgan. Milliy valyutadagi majburiyatlar va kapitalning bir yilgacha bo'lgan qismi 42 foizni tashkil etgan. Xorijiy valyutada esa mazkur ko'rsatkichlar mos ravishda 57 va 46 foiz darajasida shakllangan. Bu qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash uchun yetarli aktivlar mavjudligini ko'rsatadi. Biroq aktiv va majburiyatlarning so'ndirish muddatlari muvofiqligi ularning foiz stavkalari bir vaqtda qayta belgilanishini anglatmaydi. Shuning uchun likvidlilik nuqtai nazaridan ijobiy hisoblangan muddat tarkibi foiz riskini to'liq istisno etmaydi [4].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Aktivlar va majburiyatlar muddatlari nomuvofiqligi bank vositachiligi, likvidlilikni boshqarish, foiz riski va sof foiz marjasini shakllantirish nazariyalari doirasida o'rganiladi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarni shartli ravishda to'rt guruhga ajratish mumkin: aktivlar va majburiyatlarni boshqarish nazariyasi, foiz riskini baholash usullari, muddat nomuvofiqligining foiz marjasiga ta'siri hamda milliy bank tizimlariga moslashtirilgan empirik yondashuvlar [13-16].

Aktivlar va majburiyatlarni boshqarish bank balansining alohida qismlarini mustaqil boshqarish emas, balki ularning hajmi, muddati, valyutasi, daromadlilik, qiymati va foiz stavkasi turini o'zaro muvofiqlashtirish jarayonidir. Mazkur yondashuv bankning likvidlilikini ta'minlash, sof foizli daromadini barqarorlashtirish, kapitalni himoya qilish va qabul qilinayotgan riskka muvofiq daromad olishni nazarda tutadi [13; 17].

An'anaviy bank vositachiligi nazariyasiga ko'ra, banklar iqtisodiyotda bo'sh turgan qisqa muddatli mablag'larni jalb qilib, ularni nisbatan uzoq muddatli kreditlar va investitsiyalarga aylantiradi. Ushbu jarayon muddat transformatsiyasi deb ataladi. Muddat transformatsiyasi jamg'arma egalariga mablag'laridan tez foydalanish imkoniyatini bersa, qarz oluvchilarga uzoq muddatli moliyalashtirish taqdim etadi. Shu tariqa banklar turli muddatlarga bo'lgan talab o'rtasida vositachilik qiladi [16; 18; 19].

Aktivlar va majburiyatlarni boshqarishning iqtisodiy mazmuni bankning daromadlilik va xavfsizlik maqsadlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda namoyon bo'ladi. Bank qisqa muddatli va arzon resurslarni uzoq muddatli, yuqori daromadli aktivlarga joylashtirish orqali foizli daromadini oshirishi mumkin. Biroq resurslar qiymati kutilmagan holda oshsa yoki omonatchilar mablag'larini qaytarib olsa, ushbu strategiya sof foiz marjasining qisqarishi va likvidlilik ehtiyojining ortishiga olib keladi [20; 21].

Aktivlar va majburiyatlar nomuvofiqligining birinchi manbai bank biznes modelining o'zi bilan bog'liq. Depozitlar ko'p hollarda qisqa muddatli yoki talab qilib olinguncha xususiyatga ega bo'lsa, kreditlar uzoq muddatga ajratiladi. Ikkinchi manba shartnomalardagi foiz stavkalari turi bilan belgilanadi. Qat'iy stavkali aktiv o'zgaruvchan

stavkali majburiyat bilan moliyalashtirilsa, resurslar qiymati aktiv daromadlilikiga nisbatan tezroq o'zgarishi mumkin [1; 20].

Uchinchi manba aktivlar va majburiyatlarning turli valyutalarda shakllanishi bilan bog'liq. Milliy va xorijiy valyutadagi bozor stavkalari turli omillar ta'sirida o'zgaradi. Shuning uchun hajm va muddat jihatidan muvofiq pozitsiyalar valyuta yoki foiz stavkasi turi bo'yicha nomuvofiq bo'lishi mumkin. To'rtinchi manba mijozlar xulq-atvori bilan izohlanadi. Depozitlarni muddatidan oldin qaytarib olish, kreditlarni oldindan so'ndirish va talab qilib olinguncha mablag'larning amalda bankda uzoq saqlanishi shartnomaviy va haqiqiy muddatlar o'rtasida farqni yuzaga keltiradi [7].

AQSh Valyuta nazorati idorasi foiz riskining asosiy manbalari sifatida qayta narxlash riski, daromadlilik egri chizig'i riski, bazis riski va opsion xususiyatiga ega risklarni ajratadi. Bu tasnif muddat nomuvofiqligi faqat aktiv va passivlarning so'ndirish sanalari farqi bilan cheklanmasligini ko'rsatadi. Bir xil muddatga ega bo'lgan aktiv va majburiyatlar turli asosiy stavkalarga bog'langan bo'lsa, ular o'rtasida bazis riski saqlanib qoladi [5].

Muddat transformatsiyasining foiz riskiga ta'siri bo'yicha adabiyotlarda bir xil xulosa shakllanmagan [6]. Depozit stavkalari bozor stavkalariga nisbatan past va kam ta'sirchan bo'lgan sharoitda depozit bazasi bank uchun uzoq muddatli qat'iy stavkali moliyalashtirish xususiyatini kasb etishini ko'rsatgan. Bunday holatda uzoq muddatli qat'iy stavkali kreditlar depozit bazasining foiz sezgirligini qoplashi mumkin. Biroq ushbu natija depozit bozoridagi raqobat, bankning bozor mavqei va depozit stavkalarining asosiy stavkaga sezgirligiga bog'liq. Demak, mazkur xulosani boshqa mamlakatlar bank tizimiga to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etishdan oldin depozit stavkalarining amaldagi ta'sirchanligini empirik baholash talab etiladi.

Ilmiy adabiyotlar va bank nazorati amaliyotida foiz riskini baholashning bir nechta usullari shakllangan. Ular o'lchash ob'ekti, vaqt doirasi va hisobga olinadigan risk manbalari bo'yicha farq qiladi. Nisbatan sodda usullar aktiv va majburiyatlar o'rtasidagi tafovutni ko'rsatsa, murakkab usullar foiz stavkalari o'zgarishining bank daromadi va kapitali iqtisodiy qiymatiga ta'sirini baholaydi [7; 1; 20;].

Muddatli tafovut tahlili aktivlar va majburiyatlarni so'ndirish muddatlari bo'yicha belgilangan oraliqlarga ajratishga asoslanadi. Har bir muddat oralig'ida kelib tushadigan aktivlar bilan to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar o'rtasidagi farq aniqlanadi. Musbat tafovut tegishli davrda aktivlar majburiyatlardan ko'pligini, manfiy tafovut esa majburiyatlar ustunligini ko'rsatadi [19; 20].

Mazkur usulning afzalligi hisob-kitobning soddaligi va bank balansida muddatlar bo'yicha risk to'planishini aniq ko'rsatishidir. Biroq muddatli tafovut asosan likvidlilik holatini ifodalaydi. U aktiv yoki majburiyatning foiz stavkasi so'ndirish muddatidan oldin qayta belgilanishi mumkinligini to'liq hisobga olmaydi. Masalan, besh yillik o'zgaruvchan stavkali kredit har uch oyda qayta narxlansa, uning shartnomaviy muddati besh yil, foiz sezgirligi esa uch oylik davrga tegishli bo'ladi [14; 20].

Qayta narxlash tafovuti usulida aktiv va majburiyatlar shartnomaviy so'ndirish muddati bo'yicha emas, foiz stavkasi qayta belgilanadigan davr bo'yicha guruhlanadi. Har bir vaqt oralig'ida foizga sezgir aktivlardan foizga sezgir majburiyatlar ayiriladi. Musbat tafovut sharoitida foiz stavkalari oshishi bankning sof foizli daromadini oshirishi

mumkin, chunki aktivlar majburiyatlarga nisbatan katta hajmda qayta narxlanadi. Manfiy tafovutda esa majburiyatlar qiymatining tezroq o'sishi sof foizli daromadni kamaytirishi mumkin [1; 20].

Qayta narxlash tafovuti qisqa muddatli foiz sezgirligini baholashda qulay. Biroq u bir muddat oralig'i ichidagi pul oqimlarining aniq vaqtini, foiz stavkasi o'zgarishining turli aktiv va majburiyatlarga bir xil bo'lmagan ta'sirini hamda balansdan tashqari pozitsiyalarni soddalashtirib ifodalaydi. Shuningdek, usul bozor stavkalaridagi o'zgarish bank mahsulotlari stavkalariga to'liq va darhol o'tadi, degan shartli farazga tayanadi [1; 20].

Dyuratsiya usuli aktiv va majburiyatlar bo'yicha kelgusi pul oqimlarining o'rtacha tortilgan muddatini hisobga oladi. Aktivlar dyuratsiyasi majburiyatlar dyuratsiyasidan yuqori bo'lsa, bozor stavkalarining oshishi aktivlar bozor qiymatini majburiyatlar qiymatiga nisbatan ko'proq pasaytiradi. Natijada bank kapitali iqtisodiy qiymati qisqaradi. Dyuratsiya tafovuti foiz stavkalari o'zgarishining bank balansining joriy qiymatiga ta'sirini aniqlash imkonini beradi [17;20].

Sof foizli daromad sezgirligi usuli foiz stavkalaridagi belgilangan o'zgarishning kelgusi davrda bankning foizli daromadlari va foizli xarajatlariga ta'sirini baholaydi. Ushbu yondashuv ko'pincha o'n ikki oylik prognoz davrida qo'llanadi. Hisob-kitobda balans hajmi o'zgarmas deb qabul qilinishi yoki kreditlar, depozitlar va boshqa pozitsiyalar dinamikasi alohida prognoz qilinishi mumkin [1;15;20].

Sof foizli daromad yondashuvi bankning joriy daromadliligiga yaqin natija beradi. Biroq uning ishonchliligi depozit stavkalarining ta'sirchanligi, kreditlarning oldindan so'ndirilishi, depozitlarni muddatidan oldin qaytarib olish va yangi operatsiyalarning foiz stavkalari bo'yicha qabul qilingan farazlarga bog'liq. Shuning uchun turli xulq-atvor farazlari natijalarni sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin [7;1;20].

Kapitalning iqtisodiy qiymati sezgirligi usuli aktivlar, majburiyatlar va balansdan tashqari pozitsiyalar bo'yicha kelgusi pul oqimlarining joriy qiymatini hisoblaydi. Bozor foiz stavkalariga shok berilgandan so'ng aktivlar iqtisodiy qiymatidan majburiyatlar iqtisodiy qiymati ayiriladi va bazaviy holat bilan solishtiriladi. Ushbu yondashuv bankning uzoq muddatli foiz riskini ko'rsatadi [7;1;20].

Bazel qo'mitasining bank portfelidagi foiz riski standarti banklardan sof foizli daromad va kapital iqtisodiy qiymati sezgirligini birgalikda baholashni talab qiladi. Standartda parallel o'sish va pasayish, egri chiziqning tiklashishi va tekislanishi, qisqa muddatli stavkalarining o'sishi va pasayishi kabi foiz shoklari nazarda tutilgan. Kapital iqtisodiy qiymatidagi maksimal yo'qotishning birinchi darajali kapitalga nisbati ham nazorat mezonini sifatida qo'llanadi [7].

Yevropa bank boshqarmasi ham foiz riskini baholashda bankning ichki modellari, xulq-atvor farazlari, muddatsiz depozitlar va kreditlarni oldindan so'ndirish ehtimolini hisobga olishni belgilagan. Ushbu yondashuvda kapital iqtisodiy qiymati va sof foizli daromad uchun alohida nazorat sinovlari o'tkaziladi [7].

Ko'rib chiqilgan usullar bir-birini almashtirmaydi. Muddatli tafovut balansdagi shartnomaviy nomuvofiqlikni, qayta narxlash tafovuti qisqa muddatli foiz sezgirligini, dyuratsiya va kapital iqtisodiy qiymati uzoq muddatli qiymat o'zgarishini, sof foizli daromad yondashuvi esa bankning yaqin davrdagi daromad ta'sirchanligini ifodalaydi.

Shu sababli foiz riskini kompleks baholash ushbu usullarni muvofiqlashtirib qo'llashni talab etadi.

Muddat nomuvofiqligining foiz riskiga ta'siri aktiv va majburiyatlar stavkalarining o'zgarish tezligi orqali yuzaga keladi. Qisqa muddatli resurslar tez-tez qayta jalb qilinishi sababli ularning qiymati bozor stavkalariga nisbatan tezroq moslashadi. Uzoq muddatli qat'iy stavkali aktivlar bo'yicha daromad esa shartnoma muddati davomida o'zgarmasligi mumkin. Natijada bozor stavkalari oshganda bankning foizli xarajatlari daromadlariga nisbatan tezroq ko'payishi ehtimoli yuzaga keladi.

Muddat nomuvofiqligining sof foiz marjasiga ta'siri bir yo'nalishli emas. U qisqa va uzoq muddatli stavkalar nisbati, depozit stavkalarining ta'sirchanligi, kreditlarni qayta narxlash shartlari, bankning bozor mavqei, valyuta tarkibi va mijozlar xulq-atvoriga bog'liq. Shu sababli uzoq muddatli kreditlar ulushining yuqoriligi o'z-o'zidan foiz riski yuqori ekanini anglatmaydi. Riskni baholashda ushbu aktivlarni moliyalashtiruvchi resurslarning muddati va foiz sezgirliги ham hisobga olinishi kerak.

O'zbekistonda Markaziy bank asosiy stavkasining o'zgarishi banklararo pul bozori stavkalariga va ular orqali tijorat banklarining kredit hamda depozit stavkalariga ta'sir ko'rsatishi rasmiy ravishda belgilangan. Biroq asosiy stavkaning kredit va depozit mahsulotlariga ta'siri bir xil tezlikda yuz bermaydi [8]. Bank stavkalariga inflyatsion kutilmalar, raqobat, operatsion xarajatlari va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi ham ta'sir ko'rsatadi. Markaziy bank ham mamlakatda uzoq muddatli moliyaviy resurslar va kapital bozori vositalarining yetarlicha rivojlanmaganini kredit stavkalarini shakllantiruvchi omillardan biri sifatida ko'rsatadi [9].

Markaziy bankning moliyaviy barqarorlik sharhlarida aktiv va majburiyatlarning muddatlar bo'yicha tarkibi asosan likvidlilik riski va makro stress-test doirasida baholanadi. Kredit-depozit nisbati, talab qilib olinguncha depozitlar ulushi, LCR va NSFR ko'rsatkichlari bank tizimi barqarorligini ifodalovchi asosiy indikatorlar sifatida qo'llanadi. Biroq muddat nomuvofiqligining kredit-depozit foiz spreadi va sof foiz marjasiga ta'siri alohida kompleks tadqiqot ob'ekti sifatida to'liq ochib berilmagan [2].

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqola O'zbekiston bank tizimida aktivlar va majburiyatlarning muddat tarkibidagi nomuvofiqlikni aniqlash, uning kredit-depozit foiz spreadi va sof foiz marjasiga ta'sirini baholashga qaratilgan. Maqolada dinamik, tarkibiy va ekonometrik yondashuvlar o'zaro muvofiqlashtirilgan holda qo'llaniladi.

Empirik tahlil ob'ekti O'zbekiston tijorat banklarining jamlanma aktivlari, kredit portfeli, depozitlari, foiz stavkalari va daromadlilik ko'rsatkichlaridan iborat. Tahlil bank tizimi darajasida amalga oshiriladi.

Tadqiqot davri 2020 yil yanvardan 2025 yil dekabrgacha bo'lgan vaqt oralig'ini qamrab oladi. Balans ko'rsatkichlari 2020 yil 1 yanvardan 2025 yil dekabr oyi yakunini ifodalaydi. Balans qoldiqlari tegishli oyning kredit va depozit stavkalari bilan muvofiqlashtirilgandan so'ng ekonometrik tanlanma 72 ta oylik kuzatuvdan iborat bo'ladi.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston bank tizimida 2020-2025 yillarda kreditlar va depozitlar hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Biroq depozitlar o'sish sur'atining kreditlar o'sish sur'atidan yuqori bo'lishi banklarning depozit bazasi hisobidan moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirgan.

1-jadval

O'zbekiston bank tizimida kreditlar va depozitlar dinamikasi¹

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Kreditlar, trln so'm	277,0	326,4	390,0	471,4	533,1	604,0
Kreditlar o'sishi, %	30,9	17,8	19,5	20,9	13,1	13,3
Depozitlar, trln so'm	114,7	156,2	216,7	241,7	308,7	417,3
Depozitlar o'sishi, %	26,1	36,1	38,8	11,5	27,7	35,2
Kredit-depozit nisbati, %	241,4	209,0	180,0	195,0	172,7	144,8
Kreditlar va depozitlar o'rtasidagi mutlaq tafovut, trln so'm	162,2	170,2	173,3	229,7	224,4	186,7

2020-2025 yillarda bank tizimi kredit portfeli 277,0 trln so'mdan 604,0 trln so'mgacha, ya'ni 118,1 foizga o'sgan. Depozitlar hajmi esa 114,7 trln so'mdan 417,3 trln so'mgacha ko'payib, o'sish 263,6 foizni tashkil etgan. Mazkur davrda kreditlarning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 16,9 foiz, depozitlarniki esa 29,5 foizga teng bo'lgan.

Natijada kredit-depozit nisbati (LDR) 2020 yildagi 241,4 foizdan 2025 yilda 144,8 foizgacha pasaygan. Ko'rsatkichning 96,6 foiz punktga kamayishi bank tizimida ichki depozit resurslarining kredit portfelini moliyalashtirishdagi ahamiyati ortganini ko'rsatadi.

Biroq LDRning 100 foizdan yuqori bo'lib qolayotgani kredit portfelining muayyan qismi depozitlardan tashqari moliyalashtirish manbalari, tashqi kredit liniyalari, banklararo resurslar, davlat mablag'lari va kapital hisobiga shakllantirilayotganini anglatadi. Shuning uchun LDRning pasayishi ijobiy tendensiya bo'lsa-da, aktivlar va majburiyatlar muddatlari to'liq muvofiqlashganini bildirmaydi.

2023 yilda depozitlar o'sishi 11,5 foizgacha sekinlashgan, kreditlar esa 20,9 foizga o'sgan. Natijada LDR 180,0 foizdan 195,0 foizga ko'tarilib, kreditlar va depozitlar o'rtasidagi mutlaq tafovut 229,7 trln so'mga yetgan. 2024-2025 yillarda depozitlar o'sishining tezlashishi ushbu nomuvofiqlikni qisman yumshatgan.

2-jadval

Davlat ulushi mavjud va boshqa banklarda kredit-depozit nisbati²

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Davlat ulushi mavjud banklar kreditlari, trln so'm	244,5	280,1	324,7	333,3	366,7	404,5
Davlat ulushi mavjud banklar depozitlari, trln so'm	82,5	104,2	135,5	124,4	154,5	212,7
Davlat ulushi mavjud banklarda kredit-depozit nisbati, %	296,5	268,7	239,6	268,0	237,3	190,2
Boshqa banklar kreditlari, trln so'm	32,5	46,3	65,4	138,1	166,4	199,5

¹ <https://cbu.uz/uz/statistics/> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulleteni

² <https://cbu.uz/uz/statistics/> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulleteni

Boshqa banklar depozitlari, trln so'm	32,3	51,9	81,2	117,3	154,2	204,6
Boshqa banklarda kredit-depozit nisbati, %	100,6	89,2	80,5	117,7	107,9	97,5

Davlat ulushi mavjud banklarda LDR 2020 yilda 296,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilga kelib 190,2 foizgacha pasaygan. Boshqa banklarda mazkur ko'rsatkich 100,6 foizdan 97,5 foizga tushgan.

Shu bilan birga, bank tizimi kredit portfelida davlat ulushi mavjud banklarning hissasi 88,3 foizdan 67,0 foizga, depozitlardagi hissasi esa 71,9 foizdan 51,0 foizga pasaygan. Demak, xususiy va xorijiy kapital ishtirokidagi banklarning depozit bozori hamda kreditlashdagi roli sezilarli darajada ortgan.

Boshqa banklarda kreditlar va depozitlar hajmining deyarli mutanosib shakllangani ularning asosan depozit resurslariga tayangan moliyalashtirish modeliga yaqinlashayotganini ko'rsatadi. Davlat ulushi mavjud banklarda esa kreditlarning depozitlardan ancha yuqori bo'lishi tashqi va nodepozit resurslarga bog'liqlik saqlanib qolayotganini anglatadi. Mazkur tafovut foiz stavkalari o'zgarganda bank guruhlarining sof foizli daromadiga ta'sir bir xil bo'lmasligini ko'rsatadi.

Kredit portfelining muddat tarkibi bankning foiz riskiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biridir. Uzoq muddatli va qat'iy stavkali kreditlar ulushining yuqori bo'lishi, majburiyatlar qisqa muddatlarda qayta narxlanadigan sharoitda, bankning sof foiz marjasi pasayishiga olib kelishi mumkin.

3-jadval

Kredit portfelining muddat va valyuta tarkibi³

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Qisqa muddatli kreditlar, trln so'm	28,2	33,4	51,1	61,2	76,0	72,2
Qisqa muddatli kreditlar ulushi, %	10,2	10,2	13,1	13,0	14,3	12,0
Uzoq muddatli kreditlar, trln so'm	248,7	293,0	338,9	410,2	457,1	531,8
Uzoq muddatli kreditlar ulushi, %	89,8	89,8	86,9	87,0	85,7	88,0
Milliy valyutadagi kreditlar ulushi, %	50,1	50,2	52,5	55,0	57,1	60,8
Xorijiy valyutadagi kreditlar ulushi, %	49,9	49,8	47,5	45,0	42,9	39,2

Tahlil davrida uzoq muddatli kreditlar hajmi 248,7 trln so'mdan 531,8 trln so'mgacha, ya'ni 113,8 foizga oshgan. Ularning jami kreditlardagi ulushi butun davr mobaynida 85-90 foiz oralig'ida saqlangan. 2025 yil yakunida uzoq muddatli kreditlar kredit portfelining 88,0 foizini tashkil etgan.

Kredit portfelida uzoq muddatli aktivlarning ustunligi iqtisodiyotni investitsion moliyalashtirish nuqtai nazaridan ijobiy hisoblanadi. Biroq foiz riski nuqtai nazaridan bu holat uzoq muddatli kreditlarning foiz stavkasi qaysi davriylikda qayta belgilanishiga bog'liq. Agar mazkur kreditlar qat'iy stavkada ajratilgan, ularni moliyalashtiruvchi depozitlar va boshqa resurslar esa qisqa muddatlarda qayta narxlanadigan bo'lsa, bozor stavkalari oshishi natijasida resurslar qiymati kreditlar daromadliligiga nisbatan tezroq ko'tariladi.

2020-2025 yillarda milliy valyutadagi kreditlar ulushi 50,1 foizdan 60,8 foizga oshgan, xorijiy valyutadagi kreditlar ulushi esa 49,9 foizdan 39,2 foizga pasaygan. Uzoq muddatli kreditlarning o'zida milliy valyuta ulushi 49,0 foizdan 63,1 foizga ko'tarilgan. Bu

³ <https://cbu.uz/uz/statistics/> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulleteni

holat kredit portfelida to'g'ridan-to'g'ri valyuta riskini qisqartirishi mumkin, biroq milliy valyutadagi uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foiz stavkasini qayta belgilash riskining ahamiyatini oshiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, kreditning uzoq muddatli bo'lishi uning butun muddat davomida qat'iy stavkada ekanini anglatmaydi. Shu sababli mazkur tahlil aktivlarning shartnomaviy muddat tarkibini ifodalaydi, foiz riskini to'liq baholash uchun esa kreditlarni qayta narxlash sanasi bo'yicha alohida tasniflash talab etiladi.

Bank depozitlarining muddat va mijozlar kesimidagi tarkibi ularning barqarorligi hamda foiz stavkalari o'zgarishiga sezgirligini belgilaydi. Talab qilib olinguncha depozitlar shartnomaviy jihatdan muddatsiz bo'lsa-da, ularning muayyan qismi amalda barqaror qoldiq xususiyatiga ega bo'lishi mumkin. Muddatli va jamg'arma depozitlari esa nisbatan barqaror resurs hisoblansa-da, bozor stavkalari oshganda ularni yuqoriroq stavkada qayta jalb qilish zarurati yuzaga keladi.

4-jadval

Depozitlarning tarkibiy ko'rsatkichlari⁴

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Jami depozitlar, trln so'm	114,7	156,2	216,7	241,7	308,7	417,3
Talab qilib olinguncha depozitlar, %	46,9	44,3	46,5	36,4	34,0	30,9
Jamg'arma depozitlari, %	9,7	8,8	10,7	10,0	9,5	13,3
Muddatli depozitlar, %	43,4	46,9	42,8	53,6	56,5	55,8
Jismoniy shaxslar depozitlari, %	27,7	27,1	31,7	38,4	42,1	40,5
Yuridik shaxslar depozitlari, %	72,3	72,9	68,3	61,6	57,9	59,5
Milliy valyutadagi depozitlar, %	56,9	61,2	60,8	70,1	74,9	79,1
Xorijiy valyutadagi depozitlar, %	43,1	38,8	39,2	29,9	25,1	20,9

Talab qilib olinguncha depozitlar hajmi 2020-2025 yillarda 53,8 trln so'mdan 128,8 trln so'mgacha oshgan bo'lsa-da, ularning jami depozitlardagi ulushi 46,9 foizdan 30,9 foizga pasaygan. Aksincha, muddatli depozitlar 49,8 trln so'mdan 233,0 trln so'mgacha ko'payib, ularning ulushi 43,4 foizdan 55,8 foizga yetgan. Jamg'arma depozitlari ulushi esa 9,7 foizdan 13,3 foizga oshgan.

Muddatli va jamg'arma depozitlari umumiy ulushining 2025 yilda 69,1 foizga yetishi bank resurs bazasining shartnomaviy barqarorligi oshganini ko'rsatadi. Lekin ushbu resurslarning foiz stavkalari bozor sharoitiga muvofiq davriy ravishda qayta belgilanishi sababli, ularning o'sishi foiz riskini avtomatik ravishda kamaytirmaydi.


Jismoniy shaxslar depozitlari hajmi 31,8 trln so'mdan 169,1 trln so'mgacha o'sib, jami depozitlardagi ulushi 27,7 foizdan 40,5 foizga yetgan. Yuridik shaxslar depozitlari 82,9 trln so'mdan 248,1 trln so'mgacha ko'paygan bo'lsa-da, ularning ulushi 72,3 foizdan 59,5 foizga pasaygan. Jismoniy shaxslar depozitlari ulushining ortishi resurs bazasining diversifikatsiyalashuviga xizmat qiladi. Biroq aholi depozitlari foiz stavkalariga sezgir bo'lishi sababli, banklar depozitlarni qayta narxlash tezligini ham hisobga olishi lozim.

Milliy valyutadagi depozitlar 65,3 trln so'mdan 329,9 trln so'mgacha o'sib, ularning jami depozitlardagi ulushi 56,9 foizdan 79,1 foizga yetgan. Xorijiy valyutadagi depozitlar

⁴ <https://cbu.uz/uz/statistics/> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulleteni

ulushi esa 43,1 foizdan 20,9 foizga pasaygan. Bu depozitlar dollarlashuvi darajasi qisqarganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, kreditlar va depozitlarni valyuta kesimida solishtirish quyidagi natijani berdi.



1-rasm. Valyuta kesimida kredit-depozit nisbati⁵

2025 yilda milliy valyutadagi kreditlarning depozitlarga nisbati 111,3 foizgacha pasaygan. Xorijiy valyutada esa ushbu nisbat 271,1 foizni tashkil etgan. Demak, xorijiy valyutadagi kreditlar faqat valyuta depozitlari bilan emas, balki tashqi qarzlar va boshqa nodepozit manbalar bilan ham moliyalashtirilmoqda.

Xorijiy valyutadagi LDRning yuqoriligi o'z-o'zidan qoplanmagan valyuta pozitsiyasi mavjudligini anglatmaydi. Biroq bu banklarning tashqi resurslar qiymati, xorijiy foiz stavkalari va qayta moliyalashtirish shartlariga sezgirligini oshiradi.

Kreditlar va depozitlar muddat tarkibi o'rtasidagi farqni umumlashtirish uchun tarkibiy nomuvofiqlik indeksi (TNI) hisoblandi. Tarkibiy nomuvofiqlik indeksi uzoq muddatli kreditlar ulushi bilan muddatli depozitlar ulushi o'rtasidagi farq orqali hisoblandi:

$$TNI_t = ULK_t - MDU_t$$

Indeksning yuqori qiymati uzoq muddatli kreditlarni moliyalashtirish uchun muddatli depozitlar bazasi yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatadi. Indeksning pasayishi muddatli resurslar ulushi uzoq muddatli kreditlarga nisbatan tezroq o'sganini anglatadi.

5-jadval

Tarkibiy nomuvofiqlik indeksi va kredit-depozitlar o'sish sur'atlari⁶

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Uzoq muddatli kreditlar ulushi, %	89,8	89,8	86,9	87,0	85,7	88,0
Muddatli depozitlar ulushi, %	43,4	46,9	42,8	53,6	56,5	55,8
Tarkibiy nomuvofiqlik indeksi, foiz	46,4	42,9	44,1	33,4	29,2	32,2

⁵ <https://cbu.uz/uz/statistics/> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulleteni

⁶ <https://cbu.uz/uz/statistics/> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulleteni

punkt						
Indeksning yillik o'zgarishi, foiz punkt	+0,9	-3,5	+1,2	-10,7	-4,2	+3,0
Kreditlar o'sishi, %	30,9	17,8	19,5	20,9	13,1	13,3
Depozitlar o'sishi, %	26,1	36,1	38,8	11,5	27,7	35,2
Kreditlar va depozitlar o'sish sur'atlari farqi, foiz punkt	+4,8	-18,3	-19,3	+9,4	-14,6	-21,9

2020-2025 yillarda TNI 46,4 foiz punktdan 32,2 foiz punktgacha, ya'ni 14,2 foiz punktga pasaydi. Bu bank tizimi muddatli depozit bazasining kengayganini ko'rsatadi. Indeks dinamikasi bir tekis bo'lmagan. 2021 yilda indeks 3,5 foiz punktga pasaygan. Depozitlar 36,1 foizga, kreditlar esa 17,8 foizga o'sgan. 2022 yilda depozitlar o'sishi kreditlar o'sishidan yuqori bo'lishiga qaramay, indeks 1,2 foiz punktga ko'tarilgan. Bunga muddatli depozitlar ulushining 46,9 foizdan 42,8 foizga pasayishi sabab bo'lgan. 2023 yilda indeks 10,7 foiz punktga qisqargan. Bu davrda muddatli depozitlar ulushi 42,8 foizdan 53,6 foizga keskin oshgan. 2024 yilda indeks eng past yillik darajaga 29,2 foiz punktga tushgan. 2025 yilda uzoq muddatli kreditlar ulushining 88,0 foizga ko'tarilishi va muddatli depozitlar ulushining 55,8 foizga pasayishi natijasida indeks 32,2 foiz punktga yetgan.

Oylik ma'lumotlar bo'yicha indeksning eng yuqori qiymati 2020 yil iyul oyida 48,1 foiz punktni, eng past qiymati 2025 yil fevral oyida 26,3 foiz punktni tashkil etdi.

Tahlil kreditlar va depozitlar umumiy o'sish sur'atlari TNI dinamikasini to'liq tushuntirmasligini ko'rsatdi. Chunki indeksga jami kreditlar va depozitlar hajmidan ko'ra ularning muddat tarkibi ta'sir qiladi. Masalan, depozitlar tez o'sishi mumkin, lekin o'sish talab qilib olinguncha depozitlar hisobiga yuz bersa, uzoq muddatli kreditlarni moliyalashtirishdagi nomuvofiqlik kamaymaydi.

Nomuvofiqlikning asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

uzoq muddatli kreditlarning 85-90 foizlik yuqori ulushi;

depozitlar tarkibida bir yilgacha bo'lgan resurslarning ustunligi;

davlat ulushi mavjud banklarda kredit-depozit nisbatining yuqoriligi;

xorijiy valyutadagi kreditlarning valyuta depozitlaridan ancha yuqoriligi;

kredit va depozit stavkalarining turlicha tezlikda qayta belgilanishi.

Kredit va depozit stavkalarining muddatlar bo'yicha foiz spreadi tegishli muddat va valyutadagi kredit stavkasi bilan depozit stavkasi o'rtasidagi farq sifatida hisoblandi. Tahlilda to'rtta spread shakllantirildi:

milliy valyutada bir yilgacha bo'lgan spread;

milliy valyutada bir yildan yuqori bo'lgan spread;

xorijiy valyutada bir yilgacha bo'lgan spread;

xorijiy valyutada bir yildan yuqori bo'lgan spread.

6-jadval

Kredit-depozit foiz spreadlarining yillik o'rtacha qiymati⁷, foiz punktda

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Milliy valyutada bir yilgacha bo'lgan foiz	5,99	5,12	4,76	5,50	5,89	6,02

⁷ Markaziy bank statistik byulleteni ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

spredi, foiz punkt						
Milliy valyutada bir yildan yuqori bo'lgan foiz spredi, foiz punkt	5,76	5,78	5,39	4,60	5,24	5,64
Xorijiy valyutada bir yilgacha bo'lgan foiz spredi, foiz punkt	2,75	3,87	4,01	5,64	6,35	7,18
Xorijiy valyutada bir yildan yuqori bo'lgan foiz spredi, foiz punkt	2,29	2,81	3,38	4,33	3,80	5,17
Markaziy bank asosiy stavkasi, %	14,92	14,00	15,42	14,17	13,75	13,92

Milliy valyutada bir yilgacha bo'lgan foiz spredi 2020 yilda 5,99 foiz punktni tashkil etgan. 2022 yilda u 4,76 foiz punktgacha pasaygan, 2025 yilda esa 6,02 foiz punktga yetgan.

Qisqa muddatli spreadning 2023-2025 yillarda kengayishi qisqa muddatli kredit stavkalari depozit stavkalariga nisbatan yuqoriroq darajada saqlanganini ko'rsatadi. Bu banklarning yangi qisqa muddatli operatsiyalar bo'yicha foiz daromadini qo'llab-quvvatlagan.

Bir yildan yuqori bo'lgan milliy valyuta spredi 2020-2022 yillarda 5,4-5,8 foiz punkt atrofida bo'lgan. 2023 yilda u 4,60 foiz punktgacha pasaygan, 2025 yilda 5,64 foiz punktga tiklangan.

Uzoq muddatli spreadning qisqa muddatli spreaddan past bo'lishi banklar uchun muhim riskni ifodalaydi. Uzoq muddatli kreditlar portfelda ustun bo'lgan sharoitda ularning daromadlilikligi sekin o'zgaradi. Depozitlar qiymati esa yangi shartnomalar tuzilishi bilan tezroq qayta narxlanadi.

Xorijiy valyutada bir yilgacha bo'lgan spread 2020 yilda 2,75 foiz punktdan 2025 yilda 7,18 foiz punktgacha kengaygan. Bir yildan yuqori spread esa 2,29 foiz punktdan 5,17 foiz punktga oshgan.

Xorijiy valyutada qisqa muddatli spreadning standart og'ishi 1,96 foiz punktni tashkil etdi. Milliy valyutadagi qisqa muddatli spreadning standart og'ishi 1,43 foiz punktga teng bo'ldi. Demak, xorijiy valyutadagi yangi kredit va depozitlar narxi ko'proq tebrangan.

Bu holatga quyidagi omillar ta'sir qilishi mumkin:

tashqi moliyalashtirish qiymatining o'zgarishi;

xalqaro foiz stavkalari dinamikasi;

valyuta resurslariga talab;

imtiyozli va tashqi kredit liniyalarining tarkibi;


valyuta depozitlari hajmining cheklanganligi.

2022 yil martda asosiy stavka 14 foizdan 17 foizga oshirilganda milliy valyutadagi qisqa muddatli spread 6,23 foiz punktdan 5,22 foiz punktga, uzoq muddatli spread esa 5,61 foiz punktdan 3,45 foiz punktga pasaygan. Bu depozit stavkalari kredit stavkalariga nisbatan tezroq moslashganini ko'rsatadi [10].

2024 yil iyulda asosiy stavka 14 foizdan 13,5 foizga pasaytirilgandan keyin milliy valyutadagi qisqa muddatli spread iyundagi 5,53 foiz punktdan iyulda 6,54 foiz punktga va sentabrda 7,77 foiz punktga ko'tarilgan. Bu davrda depozit stavkalari kredit stavkalariga nisbatan tezroq pasaygan [11].

2025 yil 20 martda asosiy stavka 13,5 foizdan 14 foizga oshirildi. Mart oyida milliy valyutada uzoq muddatli spread 4,11 foiz punktdan 5,88 foiz punktga oshgan, qisqa muddatli spread esa keyingi ikki oyda qisqargan [12].

Demak, asosiy stavka o'zgarishi spreadlarga avtomatik va bir xil miqdorda o'tmaydi. Ta'sir kredit va depozitlarni qayta narxlash tezligi, banklar raqobati va resurslar tarkibiga bog'liq.



2-rasm. Bank tizimi sof foiz marjasining yillik o'rtacha qiymati⁸

TNI pasaygan davrda sof foiz marjasi ham bir yo'nalishda o'zgarmagan. Masalan, 2022 yilda TNI deyarli o'zgarmagan bo'lsa-da, sof foiz marjasi 5,25 foizga ko'tarilgan. 2023-2025 yillarda TNI pasaygan, ammo sof foiz marjasi ham 4,89 foizdan 4,53 foizga tushgan.

Bu natija sof foiz marjasiga muddat tarkibidan tashqari quyidagi omillar ham ta'sir qilishini ko'rsatadi:

- kredit va depozit stavkalari;
- foiz keltirmaydigan aktivlar ulushi;
- imtiyozli kreditlar hajmi;
- nodepozit resurslar qiymati;
- kredit portfeli sifati;
- valyuta tarkibi;
- asosiy stavka va inflyatsiya.

TNI bilan NIM o'rtasidagi korrelyatsiyaning pastligi muddat nomuvofiqligi foiz marjasiga ta'sir qilmaydi degan xulosani bermaydi. TNI kredit va depozitlarning umumlashtirilgan shartnomaviy tarkibini ifodalaydi. Sof foiz marjasi esa foiz stavkalarini qayta belgilash muddati va amaldagi portfel daromadligiga bog'liq.

Milliy valyutada uzoq muddatli spread bilan NIM o'rtasida manfiy bog'liqlik aniqlandi. Yangi uzoq muddatli kreditlar bo'yicha spread kengaygan davrda bankning mavjud kredit portfeli daromadligi darhol o'zgarmasligi mumkin. Biroq depozitlar va boshqa resurslar qiymati tezroq oshadi. Natijada yangi operatsiyalar spreadi kengaysa ham, jami aktivlar bo'yicha sof foiz marjasi qisqarishi mumkin.

⁸ Markaziy bank statistik byulleteni ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Xorijiy valyutadagi spreadlar NIM bilan ijobiy bog'langan, ammo ularning tebranuvchanligi yuqori. Bank tizimida xorijiy valyutadagi kreditlar tashqi kredit liniyalari bilan ham moliyalashtirilgani sababli, valyuta depozitlari spreadi bankning haqiqiy valyuta resurslari qiymatini to'liq ifodalamaydi.

Xulosa

O'zbekiston bank tizimida aktivlar va majburiyatlar muddat nomuvofiqligini foiz riski nuqtai nazaridan baholash quyidagi ilmiy va amaliy natijalarni shakllantirdi.

1. 2020-2025 yillarda bank tizimi kreditlari 277,0 trln so'mdan 604,0 trln so'mgacha, ya'ni 118,1 foizga o'sgan. Depozitlar esa 114,7 trln so'mdan 417,3 trln so'mgacha yoki 263,6 foizga ko'paygan. Depozitlarning tezroq o'sishi natijasida kredit-depozit nisbati 241,4 foizdan 144,8 foizga pasaygan. Bu banklarning ichki depozit resurslari bilan ta'minlanganligi yaxshilanganini ko'rsatadi.

2. Kreditlar va depozitlar o'rtasidagi mutlaq tafovut 2025 yil yakunida 186,7 trln so'mni tashkil etgan. Davlat ulushi mavjud banklarda kredit-depozit nisbati 190,2 foiz, boshqa banklarda esa 97,5 foiz bo'lgan. Demak, nodepozit va tashqi resurslarga bog'liqlik asosan davlat ulushi mavjud banklarda saqlanib qolgan.

3. 2025 yilda uzoq muddatli kreditlar jami kredit portfelining 88,0 foizini, muddatli depozitlar esa jami depozitlarning 55,8 foizini tashkil etgan. Tarkibiy nomuvofiqlik indeksi 2020 yildagi 46,4 foiz punktdan 2025 yilda 32,2 foiz punktga pasaygan. Shunga qaramay, uzoq muddatli aktivlar va muddatli resurslar o'rtasida 32,2 foiz punktlilik farq saqlanib qolgan.

4. Valyuta kesimidagi natijalar nomuvofiqlik bir xil emasligini ko'rsatdi. 2025 yilda milliy valyutadagi kredit-depozit nisbati 111,3 foizni, xorijiy valyutada esa 271,1 foizni tashkil etgan. Xorijiy valyutadagi kreditlarning depozitlardan 2,7 baravar yuqoriligi banklarning tashqi moliyalashtirish manbalariga sezgiriligini oshiradi.

5. 2026 yil 1 yanvar holatiga milliy valyutada bir yilgacha bo'lgan aktivlar ulushi 47 foizni, majburiyatlar va kapital ulushi 42 foizni tashkil etgan. Xorijiy valyutada ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 57 va 46 foizga teng bo'lgan. Demak, qisqa muddatli majburiyatlar tegishli aktivlar bilan qoplangan. Biroq shartnomaviy muddatlar bo'yicha ijobiy qoplanish foiz stavkalarini qayta belgilash nomuvofiqligi mavjud emasligini anglatmaydi.

6. 2025 yilda milliy valyutada bir yilgacha bo'lgan kredit-depozit spreadi o'rtacha 6,02 foiz punktni, bir yildan yuqori spread 5,64 foiz punktni tashkil etgan. Xorijiy valyutada ushbu ko'rsatkichlar 7,18 va 5,17 foiz punktga teng bo'lgan. Xorijiy valyutadagi qisqa muddatli spreadning standart og'ishi 1,96 foiz punkt bo'lib, milliy valyutadagi 1,43 foiz punktlilik ko'rsatkichdan yuqori bo'lgan. Bu xorijiy valyutada kredit va depozitlar narxining ko'proq tebranishini ko'rsatadi.

O'zbekiston bank tizimida aktivlar va majburiyatlar muddatlari nomuvofiqligini foiz riski nuqtai nazaridan baholashda quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Tijorat banklari uchun:

uzoq muddatli kreditlarni barqaror resurslar bilan qoplash koeffitsientini kamida 100 foiz, boshqaruv zaxirasini 105 foiz darajasida belgilash;

bir yilgacha bo'lgan jamlanma GAPni milliy valyutada ± 15 foiz va xorijiy valyutada ± 10 foiz doirasida saqlash;

TNI 40 foiz punktdan oshganda uzoq muddatli qat'iy stavkali kreditlar o'sishini cheklash;

qisqa resurslar bilan moliyalashtirilgan uzoq muddatli kreditlarda o'zgaruvchan yoki davriy qayta ko'rib chiqiladigan stavkalarni qo'llash;

kredit va depozit stavkalarini qayta belgilash davrlarini muvofiqlashtirish;

Δ NII/NII ko'rsatkichi 10 foizdan oshishiga yo'l qo'ymaslik;

TNI, GAP, NII, EVE, LCR va NSFRni yagona aktiv-passivlarni boshqarish panelida nazorat qilish.

Markaziy bank uchun:

TNIn bank tizimi, bank guruhlar va alohida banklar kesimida hisoblash;

banklardan aktiv va majburiyatlarni qaytarish muddati bilan birga foiz stavkasini qayta belgilash muddati bo'yicha hisobot olish;

kreditlarni qat'iy va o'zgaruvchan stavkali turlarga ajratib e'lon qilish;

muddatli depozitlarni bir yilgacha va bir yildan yuqori guruhlarda ochiq qilish;

milliy va xorijiy valyutalarda alohida GAP limitlarini joriy etish;

NII va EVE sezgirliги bo'yicha standart stress ssenariylarini belgilash;

LCR va NSFR talablarini IRRBB ko'rsatkichlari bilan birgalikda baholash.

Taklif etilgan yondashuv muddat nomuvofiqligini faqat likvidlik muammosi sifatida emas, balki bankning sof foizli daromadi, iqtisodiy qiymati va resurslar barqarorligiga bir vaqtda ta'sir qiluvchi kompleks risk sifatida boshqarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Basel Committee on Banking Supervision. Interest Rate Risk in the Banking Book. BCBS Standards. – Basel: Bank for International Settlements, 2016. – 51 p.

2. Basel Committee on Banking Supervision. Recalibration of Shocks for Interest Rate Risk in the Banking Book. BCBS Standards. – Basel: Bank for International Settlements, 2024. – 11 p.

3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten: 2025 yil. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026. – 132 b.

4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Moliyaviy barqarorlik sharhi: 2025 yil. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026. – 195 b.

5. Office of the Comptroller of the Currency. Interest Rate Risk. Comptroller's Handbook, Safety and Soundness Series. – Washington, DC: Office of the Comptroller of the Currency, March 2020.

6. Drechsler I., Savov A., Schnabl P. Banking on Deposits: Maturity Transformation without Interest Rate Risk // The Journal of Finance. – 2021. – Vol. 76, Issue 3. – P. 1091–1143. DOI:10.1111/jofi.13013.

7. European Banking Authority. Guidelines on Interest Rate Risks for Banking Book Activities (IRRBB) and Credit Spread Risk Arising from Non-Trading Book Activities (CSRBB). EBA/GL/2022/14. – Paris: European Banking Authority, 2022. <https://www.eba.europa.eu/activities/single-rulebook/regulatory-activities/supervisory-review-and-evaluation-process-srep-0>

8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Asosiy stavkaning tijorat banklari kredit va depozit foiz stavkalariga ta'sir qilish mexanizmi. – Toshkent, 2025.
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy izohi: «Asosiy stavka pasayib borsa ham, nega kreditlar arzonlashmadi?». – 2026 yil 6 yanvar.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati sharhi: 2022 yil IV chorak. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2023. – 24 b.
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Markaziy bank boshqaruvi 2024 yil 25 iyuldagi yig'ilishida asosiy stavkani 0,5 foiz bandga pasaytirib, yillik 13,5 foiz darajasida belgilash to'g'risida qaror qabul qildi. – 2024 yil 25 iyul.
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Markaziy bank boshqaruvi 2025 yil 20 martdagi yig'ilishida asosiy stavkani 0,5 foiz bandga oshirib, yillik 14 foiz darajasida belgilash to'g'risida qaror qabul qildi. – 2025 yil 20 mart.
13. Choudhry, M. (2018). Bank Asset and Liability Management I. In: An Introduction to Banking: Principles, Strategy and Risk Management. 2nd ed. John Wiley & Sons. <https://doi.org/10.1002/9781119115922.ch7>
14. English, W.B. (2002). Interest Rate Risk and Bank Net Interest Margins. BIS Quarterly Review, December, pp. 67–82. https://www.bis.org/publ/qtrpdf/r_qt0212g.htm
15. Freixas, X. and Rochet, J.-C. (2023). Microeconomics of Banking. 3rd ed. Cambridge, MA: MIT Press. <https://mitpress.mit.edu/9780262048194/microeconomics-of-banking/>
16. Choudhry, M. (2007). Bank Asset and Liability Management: Strategy, Trading, Analysis. Singapore: John Wiley & Sons. <https://www.wiley-vch.de/en/areas-interest/finance-economics-law/bank-asset-liability-management-978-0-470-82135-0>
17. Diamond, D.W. and Dybvig, P.H. (1983). Bank Runs, Deposit Insurance, and Liquidity. Journal of Political Economy, 91(3), pp. 401–419. <https://doi.org/10.1086/261155>
18. Basel Committee on Banking Supervision. (2008). Principles for Sound Liquidity Risk Management and Supervision. Basel: Bank for International Settlements. <https://www.bis.org/publ/bcbs144.htm>
19. Office of the Comptroller of the Currency. (2020). Interest Rate Risk: Comptroller's Handbook. Washington, DC: OCC. <https://www.occ.treas.gov/publications-and-resources/publications/comptrollers-handbook/files/interest-rate-risk/pub-ch-interest-rate-risk.pdf>
20. Coulier, L., Pancaro, C. and Reghezza, A. (2024). Are Low Interest Rates Firing Back? Interest Rate Risk in the Banking Book and Bank Lending in a Rising Interest Rate Environment. BIS Working Papers, No. 1202. <https://www.bis.org/publ/work1202.htm>

Copyright: ©2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

